

UDK: 070:504:316.77

**Suv muammolarining Internet jahon axborot tarmogidagi veb-sayt tarzidagi OAVda yoritilishi va uning jamoatchilik fikriga ta'siri**

**Malika Munavarovna SABUROVA**

o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ORCID: 0009-0004-5062-2307

**Annotatsiya**

Maqolada suv muammolarining internet jahon axborot tarmogidagi veb-sayt tarzidagi OAVda yoritilishi va uning jamoatchilik fikriga ta'siri media-sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy va xorijiy onlayn media platformalarning suv muammolarini yoritishdagi yondashuvlari qiyosiy asosda o'rganildi. Natijada media diskursning o'ziga xos xususiyatlari hamda uning auditoriyaga ta'siri aniqlandi.

**Tayanch so'zlar:** suv tanqisligi, internet jahon axborot tarmogidagi veb-sayt tarzidagi OAV, media diskurs, jamoatchilik fikri, axborot ta'siri, media-sotsiologiya, ekologik jurnalistika, suv resurslari, ekologik ong.

**Освещение водных проблем в СМИ в формате веб-сайтов во всемирной информационной сети Интернет и его влияние на общественное мнение**

**Малика Мунаваровна САБУРОВА**

преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

**Аннотация**

В статье с медиасоциологической точки зрения анализируется освещение водных проблем в СМИ в формате веб-сайтов во всемирной информационной сети Интернет и его влияние на общественное мнение. В исследовании на сравнительной основе изучены подходы национальных и зарубежных онлайн-медиаплатформ к освещению проблем воды. В результате были определены специфические особенности медиадискурса и его влияние на аудиторию.

**Ключевые слова:** дефицит воды, СМИ в формате веб-сайтов во всемирной информационной сети Интернет, медиадискурс, общественное мнение, информационное влияние, медиасоциология, экологическая журналистика, водные ресурсы, экологическое сознание.

Suv muammolari hozirgi kunda jamiyatning eng murakkab va ko'p qirrali masalalaridan biri hisoblanadi. Bu muammo nafaqat tabiiy resurslar, balki iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa suv tanqisligi va uning oqibatlari haqida ommaviy axborot vositalarida

qanday axborot berilishi jamiyatning bu muammoga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Shu bois suv muammolarining internetdagi (veb-sayt tarzidagi) OAVda yoritilishi alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Media-sotsiologik yondashuvga ko'ra, internetdagi OAV ekologik muammolar bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi muhim kommunikativ institut hisoblanadi [1]. BMTning 2024-yilgi "World Water Development Report" ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb yarmi yilning ma'lum davrida suv tanqisligi xavfi ostida yashamoqda [15]. O'zbekistonda esa mavjud suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy manbalar hisobidan shakllanadi.

O'zbekistonning internetdagi OAVlari suv muammolarini turli uslubda yoritadi. Ekolog.uz ekologik nuqtai nazarni ustun qo'yib, suv resurslarining kamayishi va tabiatga ta'sirini ko'rsatadi. Kun.uz ko'proq ijtimoiy muammolarni yoritib, aholining kundalik hayotidagi suv bilan bog'liq qiyinchiliklarni ochib beradi. Uza.uz esa rasmiy axborot agentligi sifatida davlat siyosati va amalga oshirilayotgan loyihalarni yoritishga e'tibor qaratadi. Daryo.uz esa yangiliklarni ommaviy auditoriyaga soddalashtirilgan shaklda yetkazadi.

Uzsuv.uz sayti esa boshqa platformalardan farqli ravishda rasmiy manba sifatida faoliyat yuritadi. Bu yerda suv ta'minoti, infratuzilma ishlari va texnik ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar beriladi. Biroq bu platformada muammolarning tanqidiy tahlili kamroq uchraydi, chunki asosiy maqsad tashkilot faoliyatini yoritishdan iborat.

Xorijiy OAVda suv muammolari asosan global ekologik xavf sifatida yoritiladi. BBC News va The Guardian platformalarida mavzu iqlim o'zgarishi hamda ekologik xavfsizlik bilan bog'liq holda tahlil qilinadi, Reuters esa faktlarga asoslangan qisqa axborot uslubidan foydalanadi. Bu jihat milliy OAV bilan qiyoslaganda farqli ko'rinadi, chunki mahalliy platformalarda bunday chuqur ijtimoiy tahlil kamroq uchraydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xorijiy OAVda suv muammolari kengroq kontekstda va tizimli yondashuv asosida yoritiladi.

Media diskurs tushunchasi bu yerda muhim ahamiyat kasb etadi. Suv muammolari bo'yicha media diskurs turli platformalarda turlicha shakllanishi

kuzatiladi. Masalan, milliy OAVda muammo ko‘pincha lokal darajada ko‘rib chiqilsa, xorijiy OAVda global miqyosda tahlil qilinadi.

Internetdagi OAV jamoatchilik fikrini shakllantirishda tezkor va interaktiv kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar integratsiyasi esa suv muammolariga oid materiallarning auditoriyaga ta‘sirini kuchaytiradi. Tahlillar natijasida suv muammolariga oid materiallar ko‘pincha mavsumiy xarakterga ega ekani aniqlandi.

Milliy OAVda esa bunday tekshiruvlar kamroq uchraydi, ammo oxirgi paytlarda bu yo‘nalishda o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayrim mustaqil platformalar muammolarni ochiq yoritishga harakat qilmoqda. Bu holat internetdagi milliy OAVda ekologik jurnalistika elementlari kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Tahlillar natijasida auditoriyaning axborot ehtiyoji media materiallar mazmuniga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi. Agar auditoriya ko‘proq amaliy axborotga ehtiyoj sezsa, OAV ham shu yo‘nalishda materiallar tayyorlaydi. Amaliy xarakterdagi axborotlar auditoriya tomonidan faol iste‘mol qilinadi. Shu bilan birga, media orqali berilayotgan axborotlar odamlarning ekologik ongini shakllantiradi. Agar suv resurslarining ahamiyati muntazam ravishda yoritib borilsa, jamiyatda suvga nisbatan ehtiyotkor munosabat shakllanadi. Aks holda, muammo yetarlicha anglanmay qolishi mumkin. Ushbu yondashuv orqali media va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yaxshiroq tushunish mumkin bo‘ladi.

#### 1-jadval

##### Milliy va xorijiy OAVda suv muammolarini yoritishning qiyosiy tahlili

<b>Ko‘rsatkich</b>	<b>Milliy OAV (Ekolog.uz, Kun.uz va boshqalar)</b>	<b>Xorijiy OAV (BBC, Guardian, Reuters)</b>
Yondashuv	Lokal va amaliy	Global va tizimli
Tahlil darajasi	O‘rtacha	Chuqur analitik
Axborot turi	Yangilik va rasmiy ma‘lumot	Tekshiruv va tahlil
Auditoriyaga ta‘sir	Xabardorlik oshadi	Faollik va muhokama kuchayadi
Muammo talqini	Ijtimoiy va infratuzilma	Ekologik va siyosiy

Jadval natijalari milliy va xorijiy OAV o'rtasidagi media yondashuv farqlarini ko'rsatadi. O'zbekistonda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Prezidentning suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etishga oid qarorlari ushbu sohada media faolligining ortishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi PQ-82-son qarorida suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish va suv resurslaridan samarali foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur tadqiqot media-sotsiologik yondashuv asosida olib borildi va unda bir nechta ilmiy usullar kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – suv muammolarining internetdagi ommaviy axborot vositalarida qanday yoritilishini aniqlash hamda bu yoritilish jamoatchilik fikriga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Shu sababli metodologiya tanlashda ham nazariy, ham amaliy yondashuvlar uyg'unligi ta'minlandi. Tadqiqotda kompleks media-tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda birinchi navbatda kontent-tahlil (content analysis) usuli qo'llanildi. Kontent-tahlil deganda matn yoki media materiallarni tizimli tarzda o'rganish, ularni kategoriyalarga ajratish va muayyan tendensiyalarni aniqlash tushuniladi. Shu asosda Ekolog.uz, Kun.uz, UzA.uz, Daryo.uz va uzsuu.uz saytlarida e'lon qilingan suv muammolariga oid materiallar tanlab olindi. Har bir maqola mazmuni, sarlavhasi, asosiy urg'usi va berilish uslubi alohida o'rganildi. Olingan materiallar soni tasodifiy emas, balki maqsadli tanlov asosida shakllantirildi. Tadqiqot doirasida 2024–2025-yillarda e'lon qilingan 70 dan ortiq media material tahlil qilindi. Ular ichidan suv tanqisligi, suv sifati, infratuzilma muammolari va ekologik oqibatlariga oid materiallar ajratib olindi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qildi. Ayrim hollarda bir xil mavzu turli saytlarda qanday yoritilgani ham solishtirib ko'rildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil (comparative analysis) usuli muhim o'rin tutdi. Bu usul orqali milliy OAV materiallari xorijiy media resurslari bilan taqqoslandi. Jumladan, BBC News, The Guardian, Reuters, Al Jazeera kabi platformalarda suv muammolari qanday yoritilgani o'rganildi. Ushbu saytlar mahalliy OAVga

o'xshash funksiyani bajaradi, ya'ni yangilik tarqatadi, tahliliy maqolalar beradi va jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil jarayonida quyidagi mezonlarga e'tibor qaratildi: mavzuning dolzarbligi qanday aks ettirilgan, muammo qanday talqin qilingan, yechimlar qanday berilgan va auditoriyaga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, xorijiy OAVda suv muammosi ko'proq global kontekstda berilishi kuzatilsa, milliy OAVda u ko'proq lokal muammo sifatida yoritiladi. Bu farq alohida tahlil qilindi. Tadqiqotda diskurs tahlili (discourse analysis) usuli ham qo'llanildi. Diskurs tahlili orqali suv muammolari atrofida shakllangan axborot muhitining ichki tuzilishi o'rganildi. Ya'ni, matnlarda qanday tushunchalar ko'p ishlatilgani, qanday iboralar ustunligi va qanday narrativ shakllangani aniqlashga harakat qilindi. Bu usul media orqali qanday ijtimoiy ma'no shakllanayotganini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, kuzatish (observation) usuli ham tadqiqot jarayonida muhim rol o'ynadi. Turli platformalardagi materiallar muntazam monitoring qilindi. Masalan, ayrim davrlarda suv muammolari bo'yicha materiallar soni keskin ortgani kuzatildi. Bu esa mavzuning mavsumiy yoki situativ xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotda statistik elementlar ham qo'llanildi, ya'ni maqolalar soni, mavzu bo'yicha ulushi va ularning taqsimoti hisoblab chiqildi. Bu raqamlar orqali qaysi platforma suv muammolariga ko'proq e'tibor qaratayotgani aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi. Masalan, ayrim saytlarda ekologik mavzular ulushi yuqori bo'lsa, boshqalarida ijtimoiy muammolar ustunligi kuzatildi.

Shuningdek, interpretatsion yondashuv ham qo'llanildi. Bu usul orqali olingan natijalar faqat fakt sifatida emas, balki ma'no jihatdan ham tahlil qilindi. Ya'ni, har bir material ortida qanday ijtimoiy yoki siyosiy kontekst borligini aniqlashga harakat qilindi. Bu esa tadqiqotning chuqurlashuviga imkon berdi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarning ishonchliligiga alohida e'tibor qaratildi. Faqat ochiq va keng foydalaniladigan manbalar asosida ishlanib, subyektiv baholardan imkon qadar qochishga harakat qilindi. Shu bilan birga, ayrim hollarda muallifning shaxsiy kuzatuvlari ham qo'shimcha izoh sifatida berildi. Natijada tanlangan metodologiya suv muammolarining media makondagi aksini har

tomonlama o'rganish imkonini berdi. Bu yondashuv orqali nafaqat axborotning o'zi, balki uning jamiyatga ta'siri ham aniqlashga erishildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, suv muammolari internetdagi milliy OAVda turli yondashuvlar asosida yoritiladi va bu yondashuvlar jamoatchilik fikriga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Ekolog.uz platformasida suv muammolari asosan ekologik xavf sifatida talqin qilinadi. Bu yerda suv resurslarining kamayishi va tabiatga ta'siri haqida ko'proq ma'lumot beriladi. Kun.uz va Daryo.uz saytlarida esa suv muammolari ko'proq ijtimoiy muammo sifatida yoritiladi. Aholining kundalik hayotida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, suv yetishmovchiligi bilan bog'liq real holatlar ko'rsatib beriladi. Ijtimoiy xarakterdagi materiallar auditoriyada yuqori rezonans uyg'otishi kuzatildi. UzA.uz va uzsu.uz platformalarida esa rasmiy axborot ustunlik qiladi. Bu yerda suv ta'minoti bilan bog'liq amalga oshirilayotgan ishlar, loyihalar va rejalar haqida ma'lumot beriladi. Biroq muammolarning tanqidiy tahlili kamroq uchraydi. Bu esa auditoriyada muammoning to'liq tasavvuri shakllanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Internetdagi xorijiy OAV bilan solishtirilganda, muhim farqlar aniqlandi. Masalan, BBC News va The Guardian saytlarida suv muammolari global ekologik inqiroz sifatida ko'rib chiqiladi. Ular suv tanqisligini iqlim o'zgarishi, siyosiy qarorlar va iqtisodiy omillar bilan bog'lab tahlil qiladi. Bu esa auditoriyada kengroq va chuqurroq tushuncha shakllantiradi. Reuters kabi platformalarda esa suv muammolari qisqa, aniq va faktlarga asoslangan tarzda beriladi. Bu uslub tezkor axborot olish uchun qulay, ammo chuqur tahlilni talab qiladigan o'quvchi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Al Jazeera esa ijtimoiy tengsizlik va resurslarga kirish muammosiga ko'proq e'tibor qaratadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, milliy OAVda suv muammolari ko'proq lokal darajada yoritiladi. Xorijiy OAVda esa bu muammo global tizimning bir qismi sifatida ko'riladi. Bu farq jamoatchilik fikriga ham bevosita ta'sir qiladi. Lokal yondashuv odamlarni muammoni yaqinroq his qilishga majbur qilsa, global yondashuv muammoning keng ko'lamini anglashga yordam beradi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, suv muammolari haqidagi materiallar soni ayrim davrlarda keskin oshadi. Bu esa mavzuning mavsumiy faolligini ko‘rsatadi. Ayniqsa issiq davrlarda suv tanqisligi haqidagi xabarlar ko‘payadi. Bu holat deyarli barcha platformalarda kuzatildi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ham sezilarli darajada ekanligi aniqlandi. Internetdagi OAVda e’lon qilingan materiallar tezda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib, keng muhokamaga sabab bo‘ladi. Bu esa jamoatchilik fikrining tez shakllanishiga olib keladi. Materiallarning tanqidiy yoki neytral ohangda berilishi auditoriya reaksiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Agar material tanqidiy ruhda yozilgan bo‘lsa, u ko‘proq e’tibor tortadi. Aksincha, rasmiy va neytral ohangdagi materiallar kamroq muhokama qilinadi.

## 2-jadval

### Suv muammolarini yoritishda milliy va xorijiy OAV natijalari

Ko‘rsatkich	Milliy OAV	Xorijiy OAV
Yoritish darajasi	Lokal	Global
Asosiy urg‘u	Ijtimoiy va amaliy	Ekologik va tizimli
Tahlil chuqurligi	O‘rtacha	Yuqori
Auditoriya reaksiyasi	Xabardorlik	Faollik va muhokama
Axborot uslubi	Yangilik + rasmiy	Tahlil + tekshiruv

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, suv muammolarining media orqali yoritilishi jamoatchilik fikrining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.


Tadqiqot natijalarini chuqurroq tahlil qilganda, suv muammolarining internetdagi OAVda yoritilishi oddiy axborot uzatishdan ko‘ra murakkab ijtimoiy jarayon ekanligi ayon bo‘ladi. Har bir media platforma bu mavzuni o‘z auditoriyasi, tahririy siyosati va funksiyasidan kelib chiqib talqin qiladi. Shu sababli bir xil muammo turli saytlarda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu farq jamoatchilik fikrining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Milliy OAVda suv muammolari ekologik va ijtimoiy nuqtai nazardan yoritiladi. Bunda Ekolog.uz ekologik xavflarga urg‘u bersa, Kun.uz va Daryo.uz ijtimoiy muammolarni ko‘proq yoritadi.

Kun.uz va Daryo.uz esa mavzuni inson hayoti bilan bevosita bog‘lab ko‘rsatadi. Ular ko‘pincha suv yetishmovchiligi sababli yuzaga kelgan real holatlarni yoritadi: ichimlik suvi uzilishi, qishloqlarda suv yetkazib berishdagi muammolar yoki aholining noroziliklari. Bu uslub o‘quvchiga muammoni yaqinlashtiradi va uni shaxsiy darajada his qilishga undaydi. Natijada bunday materiallar ko‘proq muhokama qilinadi va tez tarqaladi.

UzA.uz va uzsuu.uz saytlarida esa mutlaqo boshqa diskurs shakllanadi. Bu platformalarda suv muammosi mavjud bo‘lsa-da, asosiy urg‘u amalga oshirilayotgan islohotlar, qurilayotgan infratuzilmalar va ijobiy o‘zgarishlarga beriladi. Bunday yondashuv ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi, biroq ayrim hollarda muammoning keskinligini pasaytirib ko‘rsatishi mumkin. Natijada auditoriya muammoning haqiqiy darajasini to‘liq anglab yetmasligi ehtimoli paydo bo‘ladi.

Xorijiy OAV suv muammolarini global ekologik xavf sifatida talqin qiladi. BBC News va The Guardian materiallarida suv tanqisligi iqlim o‘zgarishi hamda ekologik xavfsizlik bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Reuters esa faktlarga asoslangan axborot uslubini qo‘llaydi. Bu jihatlar milliy OAVdan asosiy farq sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, media materiallarning ohangi ham muhim rol o‘ynaydi. Tanqidiy va keskin materiallar odatda ko‘proq e‘tibor tortadi, ular ijtimoiy tarmoqlarda tez tarqaladi va keng muhokamaga sabab bo‘ladi. Rasmiy va neytral ohangdagi materiallar esa kamroq rezonans uyg‘otadi. Bu holat barcha o‘rganilgan platformalarda deyarli bir xil kuzatildi. Media-sotsiologik jihatdan qaraganda, suv muammolari bo‘yicha axborotlar jamoatchilik ongida ikki xil effektini yuzaga keltiradi. Birinchisi – xabardorlikni oshirish, ya’ni odamlar muammo haqida bilib oladi. Ikkinchisi – munosabat shakllantirish, ya’ni ular bu muammoga qanday qarash kerakligini o‘rganadi. Bu jarayon ko‘pincha sezilmas tarzda sodir bo‘ladi.

Quyidagi sxema ushbu jarayonning mexanizmini ko‘rsatadi:



Ushbu sxemadan ko‘rinadiki, media oddiy vositachi emas, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi markaziy bo‘g‘in hisoblanadi. Har bir bosqich keyingisiga ta‘sir qiladi va natijada, umumiy ijtimoiy munosabat vujudga keladi. Bundan tashqari, suv muammolari bo‘yicha materiallarning mavsumiyligi ham muhokama qilishga arziydi. Issiq davrlarda suv tanqisligi haqidagi xabarlar soni ortadi, bu esa muammoning vaqtinchalik kuchayishini emas, balki media e‘tiborining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Xorijiy OAVda esa mavzu yil davomida tizimli tarzda yoritilib boriladi, bu esa barqaror diskursni shakllantiradi. Yana bir muhim jihat – ijtimoiy tarmoqlarning roli. Internetdagi OAV materiallari ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqaladi va u yerda qayta talqin qilinadi. Bu esa asl material mazmunining o‘zgarishiga ham olib kelishi mumkin. Natijada jamoatchilik fikri faqat OAV emas, balki foydalanuvchilar tomonidan ham shakllantiriladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, suv muammolarining yoritilishi ko‘p darajali va murakkab jarayon ekanligi ayon bo‘ladi. Bu jarayonda nafaqat jurnalistlar, balki auditoriya ham faol ishtirok etadi. Bu esa media-sotsiologik tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘rganilgan materiallar asosida shuni aytish mumkinki, suv muammolarining internetdagi OAVda yoritilishi jamoatchilik fikrining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari internetdagi OAV ekologik muammolar bo‘yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim kommunikativ vosita ekanligini ko‘rsatdi. Bu talqin

auditoriyada turli reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Milliy OAV ko‘proq lokal va amaliy yondashuvni qo‘llaydi, bu esa muammoni odamlar hayotiga yaqinlashtiradi. Xorijiy OAV esa tizimli va global tahlilga urg‘u beradi, bu esa muammoning kengroq kontekstini ochib beradi. Har ikki yondashuvning o‘z afzalliklari mavjud va ular bir-birini to‘ldirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, internetdagi OAV suv muammolariga oid jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim kommunikativ institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Milliy va xorijiy media tajribasining qiyosiy tahlili suv muammolarini yoritishda tizimli, analitik va tekshiruv jurnalistikasi elementlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, ekologik jurnalistika yo‘nalishida ma’lumotlarning statistik asoslanganligi, vizual tahlil va ekspert fikrlaridan foydalanish media samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. McQuail D. Mass Communication Theory. — 6th ed. — London: Sage Publications, 2010. — 632 p.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. — 2nd ed. — Oxford: Blackwell Publishing, 2010. — 597 p.
3. Shoemaker P. J., Reese S. D. Mediating the Message in the 21st Century: A Media Sociology Perspective. — 3rd ed. — New York: Routledge, 2014. — 432 p.
4. Couldry N., Hepp A. The Mediated Construction of Reality. — Cambridge: Polity Press, 2017. — 256 p.
5. Allan S. News Culture. — 3rd ed. — Maidenhead: Open University Press, 2010. — 216 p.
6. BBC News. Water crisis coverage [Elektron resurs]. — URL: <https://www.bbc.com/news/> (murojaat sanasi: 09.05.2026).
7. The Guardian. Environment and water issues [Elektron resurs]. — URL: <https://www.theguardian.com/environment> . (murojaat sanasi: 09.05.2026).
8. Reuters. Water and climate news reports [Elektron resurs]. — URL: <https://www.reuters.com>. (murojaat sanasi: 09.05.2026).

9. Al Jazeera. Water scarcity and global inequality [Elektron resurs]. — URL: <https://www.aljazeera.com>. (murojaat sanasi: 09.05.2026).
10. Ekolog.uz. Suv resurslari va ekologiya mavzusidagi maqolalar [Elektron resurs]. — URL: <https://ekolog.uz>. (murojaat sanasi: 09.05.2026).
11. Kun.uz. Suv muammolari bo'yicha yangiliklar va tahlillar [Elektron resurs]. — URL: <https://kun.uz>. (murojaat sanasi: 09.05.2026).
12. Daryo.uz. Suv ta'minoti va ijtimoiy muammolar haqidagi materiallar [Elektron resurs]. — URL: <https://daryo.uz>. (murojaat sanasi: 09.05.2026).
13. Uza.uz. O'zbekiston Milliy axborot agentligi materiallari [Elektron resurs]. — URL: <https://uza.uz>. (murojaat sanasi: 09.05.2026).
14. "O'zsuvta'minot" AJ. Rasmiy axborot va hisobotlar [Elektron resurs]. — URL: <https://uzsuv.uz>. (murojaat sanasi: 09.05.2026).
15. United Nations. World Water Development Report. — Paris: UNESCO Publishing, 2020. — 186 p.